



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 16-fevral, payshanba,
19 (23.740)-son

**KUN
HIKMATI**

Qilayotgan ishingni odamlarga ko'rsatish emas, odamlar shu ishlaridan o'z hayotida o'zgarish bo'layotganini sezishi muhim

1913-yil aprel oyidan chiqq boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz



MUTASADDI BO'LIH MAS'ULIYATI

uni har bir davlat xizmatchisi teran anglab ishlashi zarur

Payariq tumanida islohotlarning borishi, mutasaddilarning aholini qiynab kelayotgan muammolarni bartaraf etish borasidagi ishlari hamda hokim yordamchilarining mahallalardagi faoliyati tanqidiy muhokama qilindi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ishtirok etgan yig'ilishda yurtimizdagi iqtisodiy islohotlar "Tadbirkor boy bo'lsa, xalq ham, davlat ham boy bo'ladi" degan shior ostida tashkil etilayotgani ta'kidlandi.

Biroq Payariq tumanida tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha 2023-yil I chorak uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichlari ijrosi qoniqarsiz ahvolda. Xususan, mahalliy budjetga tushumlar 28724,1 million so'm reja qilingani holda amalda 13260,8 million so'mni tashkil qilgan. 180 ta kichik biznes sub'ekti tashkil qilish ko'zda tutilgan bo'lib, bu boradagi ko'rsatkich bor-yo'g'i 32 tani tashkil qilgan. Yangidan ish boshlagan yakka tartibdagi tadbirkorlar esa 329 o'rniga 76 ta. O'zini o'zi band qilish yuzasidan belgilangan prognoz ham 12 foizga bajarilgan. Ko'chma xizmat ko'rsatish shoxobchalari 620 ta emas, 13 ta tashkil qilgan.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tadbirkorlarning muammolari va ular faoliyati bilan bog'liq tizimli masalalar bo'yicha beshta asosiy yo'nalish belgilanib, ularning har biri bo'yicha amaliy ishlar bajarilmoqda. Misol uchun, korxonalarini toifalarga ajratib, ularni

qo'llab-quvvatlash bo'yicha alohida yondashuv belgilangan. Bu borada birgina biznes uchun soliq yukini kamaytirish siyosati olib borilayotgani ham tadbirkorlar uchun yengillik bo'lmoqda. Qolaversa, tuman va shaharlar 5 ta toifaga ajratildi. Ularda soliq, subsidiya, kredit foizlari uchun kompensatsiya va kafillik berish, infratuzilmaga ulash bo'yicha alohida tartiblar belgilandi.

Qulay moliyalashtirish tizimini yaratish borasida ham qator yangiliklar joriy qilinmoqda. Payariq tumanida aholi tadbirkorligi uchun belgilangan 815 million subsidiyadan hali biron so'm ajratilmagani bu masalaga mas'ullar befarq qarayotganini ko'rsatmaydimi? Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida rejalashtirilgan 7829 million so'm kredit mablag'larining 43 foizi tadbirkorlikka ishtiyoqi bor kishilarga berilgan. Ya'ni, 4471 million so'm kredit maqsadli foydalanish uchun ajratilmagan.

Bugun mutasaddilar oldida faqat odamlarning tadbirkor bo'lishga yordam berish orqali yangi ish o'rinlari yaratilishi va minglab oilalarga baraka kirishi uchun xizmat qilish vazifasi mavjud, - dedi viloyat hokimi. - Buning uchun birinchi navbatda olib borilayotgan islohotlar, berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlarni keng jamoatchilik o'rtasida tushuntirish, targ'ib etish lozim. Har bir fuqaro bundan foydalanish avvalo, o'z oilasi, mahallasi, pirovardida mamlakat uchun imkoniyatlar eshigini ochishini anglab yetishi zarur.

Muhokama davomida hokim yordamchilari va tegishli mas'ullarga aniq vazifalar berildi.



Samarqandliklar XALQARO TURIZM yarmarkasida

Isroilning Tel-Aviv shahrida bo'lib o'tgan The International Mediterranean Tourism Market (IMTM-2023) (xalqaro O'rta yer dengizi turizm bozori) xalqaro sayyohlik yarmarkasida samarqandlik tadbirkorlar ham o'z mahsulotlari va turistik xizmatlarini taqdim etmoqda.

Jumladan, "Silk Road Samarkand" xalqaro turizm markazi, Samarqand xalqaro aeroportining "Air Marakanda" boshqaruv kompaniyasi o'z xizmatlari to'g'risida ma'lumot berib, hamkorlik bo'yicha takliflarini ilgari surdi.

Viloyat turizm sohasi vakillari Isroilning sayyohlik idoralari, transport kompaniyalari, aviakompaniyalar hamda turli mamlakatlar vakolatxonalari bilan muzokaralar olib bordi.



Viloyatda 20 ta MADANIYAT markazi ta'mirtalab, 26 tasi o'z binosiga ega emas

2022-yilda madaniyat sohasida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuq va kamchiliklar, joriy yilda belgilangan vazifalar xususida viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i Shaxzod Eshonqulov bilan suhbatlashdik.

- Viloyatda 136 ta madaniyat muassasasi mavjud bo'lib, shundan 4 ta davlat teatri, 32 ta musiqa va san'at maktabi, 1 ta ixtisoslashtirilgan san'at maktabi, 1 ta ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi va uning 16 ta filiali, 80 ta madaniyat markazi, "O'zbek-konsert" davlat muassasasi viloyat bo'limi, O'zbekiston Davlat filarmoniyasi viloyat bo'linmasi va madaniyat markazlari qoshida 32 ta xalq unvoniga ega badiiy havaskorlik jamoalari faoliyat ko'rsatmoqda, - deydi Sh.Eshonqulov.

(Davomi 2-sahifada) >>>

BU YIL TADBIRKORLIKKA E'TIBOR OSHADI

O'tgan yil viloyatimizda barcha sohalarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Pandemiya davridan keyin bunday ijobiy o'zgarish iqtisodiyot tarmoqlari barqaror rivojlanayotganligini ko'rsatdi. Erishilgan natijalar va to'planagan tajribalar asosida joriy yilda ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash rejalarni ishlab chiqdik.

Xususan, 2023-yilda viloyatimizda mahalliy budjetlarga tushumlar hajmini 4 trillion 838 milliard so'mga yetkazish rejalashtirilgan va o'tgan yilga nisbatan 32 foiz o'sishga erishiladi.

Buning uchun 11880 ta kichik biznes sub'yekti tashkil etiladi (2022-yilda 10706 ta). Rejaga asosan o'tgan yilga nisbatan 11 foiz ko'p aholi tadbirkorlikka jalb qilinib, yil yakunigacha qo'shimcha 20690 ta yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'yekti ro'yxatga olinadi. O'zini o'zi band qilgan fuqarolar ham o'tgan yilgi 172,7 mingdan 190 mingtagacha oshiriladi.

Albatta, bu loyihalarning amalga oshirilishi mablag'ga bog'liq. Shu bois o'tgan yil aholi tadbirkorligi uchun 200 milliard 254 million so'm subsidiya yo'naltirilgan bo'lsa, joriy yilda bu miqdor 49 milliard 750 million so'mga yetadi. O'tgan yili 3470 ta mikroloyiha va uy tadbirkorligi loyihalari amalga oshirildi, bu yil ularning soni 3889 taga yetkaziladi.

Viloyat iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasi asosiy drayverlardan hisoblanadi va bu tarmoqda imkoniyatlarimiz katta. Shu bois sohani yanada rivojlantirish, aholini ushbu yo'nalishda tadbirkorlikka jalb qilish borasida ham yangi rejalar ishlab chiqdik. Jumladan, tashqi reklama ob'ekti auktsionga chiqarish yo'nalishida o'tgan yili 1428 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lsa, bu yil 2200 ta ob'yekt savdoga qo'yiladi. Ko'chma xizmat ko'rsatish shoxobchalari tashkil etilishi ham 2022-yilga nisbatan 233 foizga oshirilib, 7369 taga yetkaziladi. Mahallalarda xizmat ko'rsatish shoxobchalari tashkil etish hajmi ham o'tgan yilgidan 11 foizga oshiriladi.

2022-yilda viloyat bo'yicha 327 gektar bo'sh yer maydoni 6709 ta lotga bo'linib auktsion savdolariga chiqarilgani va bu o'z samarasini berdi. Shu bois joriy yilda yana 331 gektar yer maydoni 6776 ta lotda savdoga qo'yiladi. Bundan tashqari, sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik yo'nalishlarida tashkil etiladigan mikromarkazlar uchun tavsiya etiladigan 44 ta bo'sh yer maydoni auktsion savdolariga chiqariladi.

Tadbirkorlikni kengaytirish iqtisodiyotni rivojlantirish va ishsizlikni kamaytirishning asosi hisoblanadi. Bu yo'nalishda o'tgan yili 28,2 mingdan ortiq fuqaro ishbilarmonlik ko'nikmalariga o'qitildi, bu yil ular soni 34,5 mingdan ortadi. Hunarmandchilikni tashkil etish, shogirdlar tayyorlashga 12 mingdan



ortiq aholi jab etilgandi, joriy yilda qamrovni 3 foizga oshiramiz.

O'tgan yili bo'sh turgan davlat mulki ob'yektlarining 53 tasi xususiy lashtirildi, 1519 tasi ijaraga berildi. 2023-yilda esa yana 73 ta ob'yektni xususiy sektorga o'tkazish va 2884 ta ob'yekt ijaraga berish rejalashtirilgan.

Tajribadan ko'rinadiki, yer berish faqat fuqaroni ish bilan ta'minlab qolmasdan, balki aholini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlash va narx-navo barqarorligiga erishish imkonini beradi. Shuning uchun o'tgan yili ishsiz fuqarolarga 8712 gektar yer maydoni uzoq muddatga ijaraga berilgandi. Joriy yilda yana 7586 gektar yer maydoni shu tartibda auktsionga chiqariladi.

2023-yilda viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash uchun mahalliy hokimiyat organlari yer uchastkalari 166 ta, yo'llarga tutash va elektr-xususiy sherikchilik asosida ijtimoiy va xizmat ko'rsatish loyihasi amalga oshirilgan bo'lsa, bu yil ular soni 227 taga yetkaziladi.

Iqtisodiyot tarmoqlari orasida oilaviy tadbirkorlik ancha samarali hisoblanadi. Viloyatda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 901,8 milliard so'm kredit mablag'i ajratilgan va joriy yil yakunigacha bu miqdor 1 trillion 100 milliard so'mga yetkaziladi.

Bu rejalar ijrosi bilan viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida sezilarli o'sish sur'atiga erishiladi va asosiy, aholi bandligi ta'minlanib, farovonlik darajasi oshiriladi.

Feruz ABILOV,
viloyat hokimining birinchi o'rinbosari v.v.b.

YO'LLAR XAVFSIZ VA RAVONMI?

yoxud mavjud vaziyat va ayrim xulosalar



Har birimiz ostona hatlab ko'chaga chiqarkanmiz, yo'l harakati ishtirokchisiga aylanamiz. Tabiiyki, xonadonimizga sog'-salomat qaytib kelishimiz qaysidir ma'noda ko'chalarimizda harakat xavfsizligi qanchalik ta'minlangan, bu boradagi qoidalarga o'zimiz nechog'lik amal qilishimiz bilan bog'liq.

Albatta, mavjud infratuzilma yoki harakat ishtirokchilarining savodxonligi va madaniyati haqida ham uzoq gapirish mumkin. Ammo ayni damdagi qoralamalarimiz biroz boshqa yo'nalishda... Viloyat IIB yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi-

dan berilgan ma'lumotga ko'ra, 2022-yilda viloyat bo'yicha 1154 ta yo'l-transport hodisalari (YTH) qayd etilgan (2021-yilda bu raqam 1129 ta bo'lgan). Shukurki, o'lim bilan bog'liq YTHlari 2 taga (280-278), halok bo'lganlar soni 5 taga (335-330) hamda bolalar ishtirokidagi YTHlari soni 3 taga (236-233), ularda halok bo'lgan bolalar soni 2 taga (54-52) kamaygan. Biroq tan jarohati bilan bog'liq YTHlari 27 taga (849-876), ularda tan jarohati olganlar 118 taga (1003-1181) oshgani kishini mulohaza yuritishga undaydi.

KUNIGA 150 DAN KAM EMAS

Yo'l-transport hodisalarining 523 tasi soat 16:00-24:00 gacha vaqt oralig'ida sodir bo'lgan.

507 tasi soat 08:00 dan 16:00 gacha, qolganlari 00:00 dan 08:00 gacha bo'lgan vaqtda qayd qilingan.

Yo'l-transport hodisalarining 30,6 foizi yoki 362 tasi xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llarida yuzaga kelgan. Shuningdek, 275 tasi davlat ahamiyatidagi, 353 tasi mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llari va 191 tasi shahar, aholi punktlarida sodir bo'lgan.

Eng ko'p avtohalokatlar payshanba (200 ta) va seshanba (182 ta) kunlariga to'g'ri kelgan. Haftaning hech bir kunida yo'l-transport hodisalarini soni 150 tadan kam bo'lmagani.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Bugungi shiddatkor kun voqeligi har qanday sohada faol va zamon bilan hamnafas bo'lishni talab etmoqda. Deputatlar zamon bilan birga dadil qadam tashlay oloyaptimi? Ularning faoliyatidan xalq rozi bo'lyaptimi, ular saylovchilari ishonchini oqlayaptimi?

Ishonchga munosib bo'lish oson (mi?)

Shu kabi savollarga xalq deputatlari viloyat Kengashiga "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan saylangan deputat Tozagul Xoliqovaning faoliyati misolida javob izladik.

Ma'lum qilinishicha, deputat saylov okrugi hududida avvalo, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar holidan xabar olib turadi. Hududdagi "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftar"larida ro'yxatda turgan oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirmoqda. 2022-yilda deputat tashabbusi va ko'magi bilan 20 dan ortiq fuqaroga moddiy hamda ijtimoiy ko'mak berilgan.

Deputat T.Xoliqovani saylovchilar bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga hamda xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasi mazmun-mohiyatiga qaratilgan muloqotida uchratdik. Xalq vakili tadbiridan so'ng qorli-izg'irini kunlar talabidan kelib chiqib, nogironligi bo'lgan xonadonlar holidan xabar oldi va ularning murojaatlarini o'rgandi.

Xususan, Ishitxon tumani Yangikent mahallasida yashovchi, buyrak yetishmovchiligidan aziyat chekayotgan fuqaroning yashash sharoiti o'rganildi. Deputat fuqaroning murojaatini tinglab, unga tibbiy tekshiruvdan o'tish, zarur dori vositalari bilan ta'minlanishida amaliy yordamni tashkil qilishga va'da berdi.

Saylov okrugidagi fuqarolar bilan uchrashuvlardan kelib chiqib aytishim mumkin, hududda hali yechimlari kuyayotgan muammolar ko'p va bu ularni hal etish uchun ish olib borishimizga to'g'ri keladi, - deydi Tozagul Xoliqova. - Mavjud muammolarni hal qilish uchun oldimizda turgan ustuvor vazifa eng avvalo, hududda ishbilarmonlikni rivojlantirish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan xotin-qizlar, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turgan fuqarolarning bir ishining boshini tutib, kasb-hunari orqasidan daromad topishlariga ko'maklashishdan iborat.

Joriy yilgi rejamga asosan saylov okrugi hududidagi mahallalar kesimida hal etilishi zarur bo'lgan muammolar ro'yxatini shakllantirishga e'tibor qaratdim. Shu asosda Mohlar va Bog'bon mahalla fuqarolar yig'inidagi ichki yo'llarni ta'mirlash zarurligi, Zarbuoq mahalla fuqarolar yig'inidagi ma'nan eskirgan simyog'ochlarni yangilash kabi masalalarda tegishli boshqaruv organlari bilan hamkorlikda ish olib boryapmiz.

Joylardagi muammolarni o'sha hududdan saylangan deputatlar boshqa mutasaddilarga qaraganda yaxshiroq biladi. Ammo ochig'ini aytish kerak, kiritgan so'rovlar har doim ham ijobiy yechimga xizmat qilmaydi.

Deputatning ta'kidlashicha, bunday hol uning to'xtab, ortga qaytishiga sabab bo'lmaydi. Xususan, T.Xoliqova Ishitxon tuman Kengashidagi partiya deputatlik guruhi bilan hamkorlikda partiyaning dasturiy g'oyalari, elektorat manfaatlaridan kelib chiqib, boshqaruv idoralari oldiga dolzarb masalalarni qo'yish, mavjud muammolarga yechim topish yo'lida qator o'rganishlar olib berdi. Xususan, umumta'lim maktablari oshxonalarini va yaqin-atrofdagi o'quvchilar salomatligi uchun zararli bo'lgan tez tayyor bo'ladigan ovqatlar, energetik ichimliklar, tarkibida narkotik bo'lgan tamaki mahsulotlari savdosining oldini olish, maktablar hududida tezlikning cheklanganligi belgilari o'rnatilganligini nazorat qilish masalalari yuzasidan o'rganishlar o'tkazildi. O'rganish natijalari mahalliy kengash sessiyasi kun tartibiga kiritish rejalashtirilgan.

Akbar ERKAYEV,
"Adolat" SDP viloyat kengashi ijrochi kotibi.

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

- O'tgan yil viloyat va respublika miqyosida tashkil etilgan ko'rik-tanlov va festivallarda viloyatimizdan 400 nafardan ziyod yoshlar ishtirok etib, faxrli o'rnlarni egalladi. Jumladan, ShHT sammiti, Turkiy tilli davlatlar sammiti kabi xalqaro tadbirlarda, "Boysun bahori", "Lazgi", "Vodiy folk", "Yoshlar festivali", "Bo'zatov" festivallarida munosib ishtirok etdi. Shuningdek, viloyatda o'zbek xalq og'zaki ijodining yetuk vakili, ulug' baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li tavalludining 150 yilligi keng nishonlandi va baxshi nomi bilan bog'liq ob'ektlarda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Viloyat musiqali drama teatri ta'mirlandi.

- 2022-2023-o'quv yilida viloyatdagi bolalar musiqa va san'at maktablariga, madaniyat markazlaridagi to'garaklarga qancha yoshlar qabul qilindi?

- Viloyatdagi 32 ta bolalar musiqa va san'at maktabiga 2022-2023 o'quv yilida 14 yo'nalishtada 9134 nafar o'quvchi qabul qilindi. Bu ko'rsatkich 2021-2022 o'quv yiliga nisbatan 800 taga ko'p demakdir. Madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi 80 ta madaniyat markazida 33 xildagi 450 ta to'garak tashkil etilgan bo'lib, ularga 4834 nafar ishtirokchi jalb qilindi. Shundan 17 yoshgacha bo'lgan 3800 nafar yoshlar muntazam shug'ullanib kelmoqda.

- Bugungi kunda viloyatda madaniyat sohasida qanday muammo va kamchiliklar bor, ularning yechimi bo'yicha amaliy ishlar qilyaptimi?

- Sohada yutuqlarimiz ko'p, lekin muammolar ham kam emas. Xususan, viloyatdagi 136 ta madaniyat va san'at muassasasida 3793 nafar ijodiy va pedagog xodim faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan 1138 nafari, ya'ni 30 foizi oliy ma'lumotli, 2655 nafari yoki 70 foizi o'rta maxsus ma'lumotga ega mutaxassis. Sohada oliy ma'lumotli kadrlar yetishmaydi. Muammo-ga yechim topish maqsadida viloyatdagi madaniyat va san'at ta'lim muassasal-

Viloyatda 20 ta madaniyat markazi ta'mirtalab, 26 tasi o'z binosiga ega emas



ari faoliyatini yaxshilash, ularni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida 2023-2024-o'quv yilidan boshlab 2028-yilga qadar madaniyat va san'at yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga Samarqand viloyati uchun (har o'quv yilida 100 tadan) maqsadli kvotalar ajratish, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining filialini tashkil qilish belgilangan.

Shuningdek, viloyatdagi 80 ta madaniyat markazidan 34 tasi ta'mirlangan, 20 ta madaniyat markazi ta'mirga muhtoj, 26 ta madaniyat markazi o'z binosiga ega emas. Viloyatdagi ixtisoslashtirilgan san'at maktabida 460 nafar o'quvchi hududlardan kelib tahsil oladi, lekin muassasada yotoqxona

va oshxona yo'q. Mazkur muammolarning yechimi bo'yicha manzilli dastur asosida bosqichma-bosqich madaniyat markazlarini ta'mirlash, 26 ta madaniyat markazi uchun bino barpo etish, ixtisoslashtirilgan san'at maktabi binosini rekonstruksiya qilish hamda qo'shimcha 300 o'rinni yotoqxona va 150 o'rinni oshxona qurish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, viloyatda ansambllar, aktyorlar, raqqoslar, sozandalar uchun sahna liboslari ishlab chiqaradigan tikuv sexi, musiqa jihozlari va cholg'ularini ta'mirlaydigan ustaxona, zamonaviy ovoz yozish studiyasi tashkil etish, chekka qishloqda o'tkaziladigan madaniy tadbirlarni tashkil-

lashtirishda, xususan, badiiy jamoalarning joylarga borib-kelishlari, shu bilan birga, tadbirlarni sifatli o'tkazish uchun mahalliy budjet mablag'lari hisobidan tuman va shahar madaniyat bo'limlariga avtomobil olish, zamonaviy ovoz kuchaytiruvchi vositalar bilan ta'minlash ko'zda tutilgan.

- Joriy yil madaniyat sohasida qanday ishlar qilinadi, nima o'zgarishlar bo'ladi?

- Bu yil madaniyat sohasida bir qancha o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda.

Jumladan, Samarqand shahri o'zida 24 ta xalqaro tadbir o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Bu tadbirlarga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan madaniyat va san'at xodimlari, viloyatimiz san'atkorlari, O'zbekiston davlat filarmoniyasi viloyat bo'linmasi san'atkorlari jalb etish rejalashtirilgan. Shuningdek, "Ipak yo'li" turizm markazida, Registon ansambli, astronomik ko'cha atrofiga xorijlik sayohat uchun xalqimizning qadimiy an'analari, urf-odatlarini ko'rsatib beradigan teatrlashtirilgan tomoshalarni mehmonlar e'tiboriga havola etish, turistik hududlarda haftada ikki marta Samarqand tarixini yoritib beradigan, ajdodlarimiz siymosini sahnalashtirish va hududlarda har oyda bir marta shahar va tuman madaniyat bo'limlari tomonidan konsert dasturlari tashkil etish rejalashtirilgan.

Shu o'rinda aytish kerakki, viloyatdagi barcha madaniyat muassasalarida va ochiq maydonlarda o'tkaziladigan konsert tomoshalari va spektakllar haqidagi afishalar butun viloyat bo'ylab joylashtiriladi hamda ular to'g'risidagi ma'lumotlar aholiga bir oy oldin yetkaziladi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV
suhbatlashdi.



AHOLINI RO'YXATGA OLISH QANCHALIK AHAMIYATLI?

Respublikamizda aholini ro'yxatga olish tadbirlari o'tkazilishi belgilangan. Xo'sh, bu qanday natija beradi?

Aholini ro'yxatga olish orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tarkiblarini haqida ham xulosalar olinadi. Ro'yxatga olish savolnomasida faqat demografik ma'lumotlarni yig'ish bilan chegaralanib qolinmaydi. Savolnoma aholi soni, yoshi, jinsi, milliy tarkibi, ma'lumot darajasi, nikoh holati, bandligi kabi bir qator ko'rsatkichlardan tashqari, yashash sharoiti, daromad manbai va boshqa tavsiflari haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Mustaqillik yillarida respublikamizda aholini ro'yxatga olish o'tkazilmagan. Mazkur tadbir ilk marotaba o'tkazilayotganligini inobatga olib, tadbirga puxta tayyorgarlik ko'rish va uni sifatli o'tkazish belgilangan.

Viloyat statistika boshqarmasi axborot xizmati.

YO'LLAR xavfsiz va ravonmi?

yo'xud mavjud vaziyat va ayrim xulosalar

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

ENG KO'P QOIDABUZARLIK TEZLIK BILAN BOG'LIQ

O'tgan yili viloyatda sodir etilgan yo'l-transport hodisalari 537 tasi yoki 45,5 foizi piyodalarni urib yuborishni tashkil qilgan. Shuningdek, 362 tasi to'qnashuv, 116 tasi velosipedchini urib yuborish, 67 tasi biror to'siqqa borib urilish, 56 tasi ag'darilish, 30 tasi turgan transportga borib urilish, 3 tasi ot aravani urib yuborish, 10 tasi boshqa turdagi yo'l-transport hodisalaridir.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra, eng ko'p qoidabuzarlik (34,3 foizi) belgilangan tezlikka rioya qilmasslik (406 ta) oqibatida sodir bo'lgan. Bundan tashqari, 157 ta hodisa qarama-qarshi yo'nalishga chiqib ketish, 136 tasi esa oraliq masofani saqlamaslik sabab yuz bergan.

Bundan tashqari, 86 ta yo'l-transport hodisasi piyodalarning qoidabuzarliklari, 66 tasi piyodalar o'tish joyida piyodaga yo'l bermasslik tufayli kelib chiqqan. Shu va o'tgan yili 18456 ta piyodalar qoidabuzarliklari aniqlangan yo'l harakati ishtirokchilarining saviyasi va o'zaro hurmatini ko'rsatib turibdi.

CHORALAR KO'RILYAPTI ...

O'tgan yili 2021-yilga nisbatan 9229 ta ko'p, aniqrog'i, 347 ming 379 ta qoidabuzarlik aniqlangan. Aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan vakolat doirasida bo'lgan 357 ming 305 ta ma'muriy bayonnomaga bo'yicha huquqbuzarlar 61 milliard 128 million so'm jarima undirilgan.

Bugungi kunda tezlik bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida "Atlas" kompaniyasining 10 ta "Kobalt" va "Neksiya-3" rusumli avtomashinalar imkoniyatlaridan foydalanilmoqda. Ular yordamida o'tgan yili 395 ming 377 ta qoidabuzarlik aniqlanib, 100 milliard 405 ming so'm miqdorida jarima undirilgan.

Mutasaddilarning qayd etishicha, yaqin kunlarda Samarqand shahridagi 14 ta uchashtkada 52 ta kuzatuv kamerasi o'rnatiladi. Davlat rahbarining tegishli qarori asosida o'rnatilayotgan bu qurilmalar yo'l harakati qoidalarining buzilishini aniqlaydi. Ular xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil bo'lishi bildirilmoqda.

Ammo bu yangilik aynan qachon amaliyotga kiritilishining aniq muddati yo'q.

ESKI USLUB, YANGILIKLAR MUDDATI NOMA'LUM

Viloyat IIB YHXB mas'ullari yo'l-transport hodisalarining oldini olish borasida 2022-yilda viloyat hududidagi avtomobil yo'llariga 3944 dona yetishmaydigan yo'l belgilari, 33550 p.metr 1-toifali muhofazalovchi to'siqlar va 423 dona yo'naltiruvchi ustunchalar o'rnatilib, 5075 dona eskirgan yo'l belgilari almashtirilganini qayd etmoqda.

Shuningdek, 41 ta joyda yangi piyodalar o'tish joyi tashkil etilib, 4 ta yangi yer osti piyodalar o'tish joyi qurilgan. 47 joyga svetfor o'rnatilgan va viloyat bo'yicha 42 ta maktab oldida 78 ta sun'iy notekisliklar o'rnatilgan.

Ko'rinib turibdiki, tizimda ish uslubi hamon eskicha yuritilmoqda - yetishmaydigan yo'l belgilari o'rnatiladi, eskirganlari almashtiriladi...

Elektr energiyasi ta'minotidagi muammolar sabab shahar

ko'chalarida svetforlar ishlamayotgani va oqibatda yo'llarda sun'iy tirbandliklar hosil bo'layotgani haydovchilarning saviyasizligi bilan baholanyapti. Ammo svetforlarga quyosh batareyalari o'rnatish haqidagi taklifimizga "bu borada dastur ishlab chiqilgan", degan javob qaytarildi.

- Unda barcha svetforlar elektr ta'minotida uzulishlar bo'lganda ham faoliyat ko'rsatishi ta'minlanishi belgilangan, - deydi viloyat IIB YHXB boshlig'i Sh.Boyxov. - Xo'sh, qachon?

- ... Shuningdek, ko'hna kentdagi svetforlar elektr energiyasi bo'lmagan vaqtida to'xtab qolmasligi uchun akkumulyator qurilmalari o'rnatilganini bildirdi. Ammo ular qanchaligiga ham to'xtalmadi.

MUTASADDILAR KECHIRILMAYDI, AMMO ...

Qayd etilishicha, 82 nafar mas'ul shaxs yo'llarni saqlash qoidalarini buzgani hamda yo'llarning qatnov qismida ta'mirlash ishlari olib borish jarayonida vaqtinchalik yo'l belgilari va to'siqlar o'rnatib, harakat xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rmaganligi uchun ma'muriy choralar ko'rilgan.

Sodir bo'lgan yo'l-transport hodisalarini (1154 ta) tahlilga asosan viloyat hududidagi avtomobil yo'llarida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan 2022-yilda yo'l xo'jaligi tashkilotlariga 53 ta, hududiy hokimliklarga 30 ta taqdimnomalar kiritilgan.

Viloyat IIB YHXBning mazkur ma'lumotidan birgina taqdimnoma ijro qilinganini anglash mumkin. Qolgan mutasaddilar ma'muriy jarima qo'llash bilan "vaziyatdan chiqish"gan, degan xulosa qilish mumkin. Ammo yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash, tegishli infratuzilmani yo'lga qo'yish ishlari bajarilmay qolgan.

TAKLIFIMIZ BOR

Mavjud vaziyatda - yo'llarda infratuzilma yetarlicha yo'lga qo'yilmagani, harakat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy vositalarni o'rnatish jadal amalga oshirilmayotgani va buning ortidan halokatlar soni kamaymayotgani bu borada qonunchilikka, balki mavjud tartiblariga o'zgartirish kiritishni taqozo qiladi. Bizningcha, yo'llarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni ham YHXB tuzilmasiga o'tkazish zarur. Toki, qaysidir yo'ldagi amalga oshirilayotgan ta'mirlash ishlarida xavfsizlik ta'minlanmay qolmasin yoki keyinchalik yumushlar chala bo'lmasin.

Shuningdek, yo'llarda tezlikni o'lchash va boshqa qoidabuzarliklarni qayd qilish vositalarini o'rnatish uchun tuman (shahar) hokimliklari bilan emas, hududiy YHXB bilan shartnoma tuzilishi kerak. Chunki yo'llarda harakat xavfsiz va tartibli bo'lishidan eng manfaatdor organ ayni shu tuzilma sanaladi. Zamonaviy vositalar o'rnatilishida ham ularga manfaatdorlik berilsa, bu boradagi ishlar yanada jadallashishi turgan gap.

Umuman, YHXB, sobiq avtyoyo'l va obodonlashtirish boshqarmalarining hududiy yo'llarga birlashtirilgan qismini yagona tashkilotga aylantirish zarur. Bizningcha, yo'lni qurish, uni jihozlash va harakatni tartibga solish bitta idoraning zimmasida bo'lishi kerak.

Yoqubjon MARQAYEV.

MUROJAATLAR IJROSI KECHIKAYOTGANI SABABLARI O'RGANILDI

Viloyatdagi davlat xizmatlari markazlariga bir kunda o'rta-cha 400-500 nafar fuqaro tashrif buyuradi. Jumladan, o'tgan 2022-yilda viloyat aholisiga 1 milliondan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatildi. Ya'ni, taqdim etilgan xizmatlar soni 2021-yilga nisbatan 282 ming 534 taga oshdi.

Ko'rinib turibdiki, yildan-yilga davlat xizmatlariga bo'lgan talab va ehtiyoj ortib bormoqda. Shundan kelib chiqib, ular qatoriga yangi xizmatlar qo'shilmog'unda. Ammo vakolatli idoralar tomonidan murojaatlarni ko'rib chiqishda sustkashlikka yo'l qo'yilayotgani xizmatlarni sifatli taqdim etishda ko'plab muammo va to'siqlarni yuzaga keltirmoqda.

Masalan, o'tgan yil mobaynida davlat xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq 8335 ta qonunbuzilish holati aniqlanib, mas'ul shaxslarning javobgarlik masalasi hal etildi. Mazkur qonunbuzilish holatlari sohalar kesimida tahlil qilinganda eng ko'p kuzatilayotgan qonunbuzilishni kadastr idoralari, gaz, elektr va suv ta'minoti korxonalari, qurilish idoralari, tuman (shahar) hokimliklari, sog'liqni saqlash muassasalari va soliq idoralari to'g'ri

kelayotgani aniqlandi.

Xususan, "URGUT SILK ..." (qisqartirildi) MChJning Urgut tuman davlat xizmatlari markazi orqali O'ramas mahallasida joylashgan ob'ektni elektr tarmoqlariga ulash uchun texnik shartlar olish bo'yicha murojaati "Samarqand HETK" AJ muhandis-loyihachisi Sh.A. tomonidan belgilangan tartibda ijro etilmagan.

Shuningdek, Samarqand shahar davlat xizmatlari markazi orqali fuqaro M.S.ning suv hisoblagichni yechish, o'rnatish va tamg'lashga ariza yuborish to'g'risidagi so'rovnomasi "Samarqand suv ta'minoti" MChJ Samarqand shahar filiali metrologi O'.U. tomonidan belgilangan tartibda ijro etilmagan.

Ushbu holatlar bo'yicha vakolatli idoralarning rahbarlari nomiga 59 ta

taqdimnoma va 798 ta ogohnoma kiritildi. Bundan tashqari, qurilish idoralari 35 nafar, kadastr idoralari 73 nafar, gaz, elektr va suv ta'minoti korxonalarining 51 nafar, hokimliklarning 4 nafar, sanitariya-epidemiologik osovishatlik va jamoat salomatligi xizmati bo'limlarining 3 nafar, arxiv idoralari 7 nafar aybdor mas'ul va mansabdor shaxslari ma'muriy, 135 nafar shaxs intizomiy javobgarlikka tortilishi ta'minlandi. 9 nafar xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilindi.

Viloyat adliya boshqarmasi tomonidan bunday vaziyatlarning oldini olish borasida vakolatli organlar xodimlari ishtirokida tushuntirish ishlari o'tkazilib, davlat xizmatlari ko'rsatishga aloqador tashkilotlar bilan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmog'unda. Maqsad xizmatlar sifatini, shaffofligini oshirish, murojaatlar vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash.

SH.AZIZOV,
viloyat adliya boshqarmasi bo'lim boshlig'i, II-darajali adliya maslahatchisi.

Viloyat axborot-kutubxona markazida Zahiriddin Muhammad Bobur taval-ludining 540 yilligi munosabati bilan "Kim yor anga ilm, tolibi ilm kerak!" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti va O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi hamkorligida tashkil etilgan tadbirda adabiyotshunos olimlar, shoir va yozuvchilar, talaba va o'quvchi yoshlar ishtirok etdi.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoh va shoir, davlat va jamoat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur qoldirgan boy ma'naviy meros oradan qariyb besh asrdan ziyod vaqt o'tibdi, o'z ahamiyatini yo'qotgan emas, - deydi filologiya fanlari doktori Azmuddin Nosirov. - Anjumanida Sharq va G'arb sivilizatsiyasida, shuningdek, yoshlar hayotida Bobur ijodining o'rnini xususida atroflicha so'z yuritildi.

Tadbirda SamDU talabasi Hilola Haydarovaning buyuk shoh va shoirning qadimiy shahrimizga bo'lgan mehr-muhabbati yuksak bo'lganligini isbotlovchi "Boburnoma"da Samarqand tasviri"

Boburning Samarqandga mehri bo'lakcha bo'lgan



nomli chiqishi ko'pchilik, ayniqsa, adabiyotshunos olimlarning e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Prezident qarori asosida mamlakatimizda Zahiriddin Muhammad Bobur taval-ludining 540 yilligi keng nishonlanmoqda, - deydi O'zbekiston yozuv-

chilar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari Toshpo'lat Tugalov. - Nazm navo bilan birga yuraklarga oson yetib borishi ko'p bor isbotlangan. Shuning uchun ham viloyat madaniyat boshqarmasi bilan hamkorlikda san'atkorlar, shoir va yozuvchilar ishtirokida ta'lim muassasalarida "Nazm va navo" kechalari o'z kazyapmiz. Bu kabi tadbirlarni faqat Bobur tavallud topgan sana arafasida emas, yil davomida tashkil etib boramiz.

Kutubxonada boshlangan anjuman talaba va o'quvchi-yoshlar o'rtasidagi mushoiraga ulanib ketdi.

Shuningdek, Samarqand davlat universitetining katta majlislar zalida tashkil etilgan konsert dasturida Bobur g'azallari bilan aytiladigan qo'shiqlar ijro etildi. Teatr aktyorlari tomonidan sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Mumtozbegim BAHODIROVA, Husan ELTOYEV (surat).

"Boburiylar davri miniatyura san'ati"

O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida buyuk davlat arbobi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur taval-ludining 540 yilligi munosabati bilan shu nomdagi ko'rgazma ochildi.

Tadbirda Oliy Majlis Senati a'zosi F.Toshev, viloyat hokimining o'rinbosari R.Qobilov Bobur shaxsiyati, asarlari va sulolaning miniatyura san'atining rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritdi.

Ko'rgazmada Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tasviriy san'at fondida saqlanayotgan boburiylar davri miniatyura san'ati namunalari uning ko'chirma nusxalari namoyish etildi.

- Muzeyda temuriylar davriga

doir 100 dan ortiq miniatyuralar saqlanmoqda, - deydi Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi bo'lim boshlig'i Safura Ro'zimurodova. - Shundan mashhur rassomlar P.Vinkov va M.Voronskiy qalamiga mansub 2 ta rangtasvir va 24 ta miniatyura namoyish etilmoqda. Mazkur miniatyuralarda boburiylar davri, jang tasvirlari, inson siyosi, uning ruhiy dunyosini o'zida mujassamlovchi lavhalar tasvirlangan.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Afg'onistonda harbiy harakatlar tugatilib, harbiy qismlarni ushbu mamlakatdan olib chiqilganiga 34 yil hamda O'zbekiston "Veteran" jangchi-faxriy va nogironlar birlashmasi tashkil etilganiga 30 yil to'ldi.

Samarqanddan 7,5 ming kishi Afg'onistondagi urushda ishtirok etgan



Shu munosabat bilan Samarqand shahridagi Xotira maydonida harbiylar, faxriy jangchilar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida "Motamsaro ona" haykali poyigiga gullar qo'yildi.

Samarqanddan 7,5 ming kishi Afg'onistondagi urushda ishtirok etgan bo'lib, ularning 165 nafari halok bo'lgan, 3 nafari bedarak yo'qolgan, - deydi Xalil Ibragimov. - Bugungi kunda viloyatda 6200 nafardan ortiq Afg'on urushi ishtirokchisi bor. Xudoga shukr, bugun yurtimiz tinch. Urushda halok bo'lgan baynalmilalchi jangchilar xotirasi abadiylashtirilmoqda, biz kabi faxriy jangchilarga e'tibor ko'rsatilyapti.

Tadbir davomida faxriy jangchilar Samarqand shahrining diqqatga sazovor maskanlariga sayohat qildi va ular uchun bayram dasturxonasi yoziildi.

F.FAXRIDINOV.

Qayering og'risa, joning o'sha yerda, deb bejiz aytishmaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, inson salomatligini tiklash uchun har qanday masofani bosib o'tishga tayyor. Ammo keyingi paytda tumanlarda o'tkazilayotgan keng miqyosdagi ko'riklar ana shu masofalarning qisqarishiga olib keldi. Viloyatdagi yetakchi tibbiyot muassasalari mutaxassislari ishtirokidagi navbatdagi shunday ko'rik Kattaqo'rg'on tumanida bo'lib o'tdi. Ko'rik davomida aholi sayyor mammograf apparati tekshiruvidan o'tishlari, yurak-qon tomir va boshqa o'nlab xastaliklar bo'yicha diagnostika uskunalaridan foydalangan holda salomatliklaridan boxabar bo'lishlariga imkoniyat yaratildi.

Qishloqqa yo'lgan "ko'rik"

Tajribali shifokor, eng qimmat uskunalar, bepul dori-darmon



Kattaqo'rg'onning ba'zi hududlaridan nafaqat viloyat, balki tuman markaziga kelish uchun ham o'nlab kilometr masofani bosib o'tish lozim.

Bugun qishloq xo'jaligi xodimlari va ularning oila a'zolari uchun o'tkazilayotgan tibbiy ko'rikda mingdan ziyod aholi ishtirok etdi, - deydi Kattaqo'rg'on tuman tibbiyot birlashmasi bosh shifokori Manzura Asrorova. - Ularga viloyat ixtisoslashtirilgan markazlarining 100 ga yaqin tajribali shifokor va mutaxassislari xizmat ko'rsatdi. 700 ga yaqin aholi tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, 306 kishida turli kasalliklar aniqlandi, 145 nafariga ambulator davolanish, 92 nafariga tuman, 66 nafariga viloyat shifoxonalarida davolanish uchun yo'llanma berildi.

Bu kabi tibbiy ko'riklar 1 fevraldan boshlab viloyatdagi barcha tumanlarda navbati bilan amalga oshirilmoqda. Umuman, keyingi yillarda tibbiyotni aholiga tobora yaqinlashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'tgan yil 19 ta mahallada 20 ta konteynerlar o'rnatilib, mahalla tibbiyot punktlari tashkil etildi. Bu mahallalardagi aholiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyati tug'ildi.

Joriy yildan boshlab o'tkazayotgan maqsadli skrininglarimizda aholi faol ishtirok etmoqda, - deydi respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologi-

ya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat bo'limi rahbari Firdavs O'lmasov. - Yil boshidan boshlab 500 ga yaqin aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazgan bo'lsak, ular orasida uch kishida onkologik xastalik, 23 kishida rakoldi kasalliklari aniqlanib, davolanishlari tavsiya qilindi.

Shuningdek, ko'rik davomida xastalik aniqlangan bemorlarga "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya jamg'armasi viloyat bo'limi tomonidan 13 turdagi dori vositalari tarqatildi.

Aytish kerakki, qishloq xo'jaligi xodimlari uchun o'tkazilayotgan mazkur aksiya avvalida viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan 11313 nafar qishloq xo'jalik xodimi hamda ularning 27877 nafar oila a'zolari ro'yxati shakllantirildi.

Bugungi kunga qadar ushbu kontingentning 18596 nafari (47 foizi) profilaktik ko'rikdan o'tkazildi, 3101 fuqaroda turli kasalliklar aniqlandi. Ushbu bemorlarda kasallikning asoratlari kuzatilmasdan erta bosqichlarda sog'lomlashtirish imkoniyati yaratildi.

Kasallik aniqlangan fuqarolarning 2841 nafari (91 foizi) sog'lomlashtirilgan bo'lsa, qolgan 416 nafari ambulator, 79 nafari viloyat va 12 nafari respublika miqyosidagi muassasalarda davolanish uchun tavsiyalar berildi.

Gulruh MO'MINOVA.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Alisher NORBO'TAYEV

Qo'li em shifokor, Samarqand davlat tibbiyot universiteti ortopedik stomatologiya kafedrasida mudiri, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, Samarqand viloyat stomatologiya poliklinikasi bosh vrachi Alisher Norbo'tayev vafot etdi.

A.Norbo'tayev 1973-yilda Bulung'ur tumanida tug'ildi. O'rta maktabni bitirib, stomatologiya sohasiga qiziqishi sabab birinchi Toshkent davlat tibbiyot institutining stomatologiya fakultetiga o'qishga kirdi. Oliygohni muvaffaqiyatli tamomlab, viloyat stomatologiya poliklinikasida vrach-ortoped mutaxassisligi bo'yicha bir yillik internaturani o'tadi. 1997-yilda viloyat stomatologiya poliklinikasida vrach-ortoped-stomatolog vazifasiga ishga qabul qilindi. Undagi rahbarlik qobiliyatini payqagan viloyat sog'liqni saqlash sohasi mas'ullari 2012-yilda A.Norbo'tayevni viloyat stomatologiya poliklinikasi bosh vrachi lavozimiga

ga tayinlashdi.

Uning rahbarligi davrida poliklinika moddiy-texnik bazasi yaxshilandi. Muassasaga zamonaviy tibbiy uskunalar keltirildi. Ilm-fanning so'nggi yutuqlaridan foydalanib, minglab bemorlarga shifo ulashildi. Qo'li em shifokor sifatida elga tanilgan Alisher Berdiqulovich mohir rahbar, jonkuyar inson sifatida jamoa orasida hurmat qozondi.

A.Norbo'tayev ishdan ajralmagan holda pedagogik faoliyat bilan ham shug'ullandi. 2017-yildan Samarqand davlat tibbiyot instituti ortopedik stomatologiya kafedrasiga mudirlik qildi. Universitet jamoat ishlarida faol qatnashdi. Tinimsiz izlanishi evaziga 2021-yilda tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini oldi.

Aholi salomatligini mustahkamlash borasidagi xizmatlari uchun A.Norbo'tayev "Meh-r-saxovat" ko'krak nishoni, viloyat hokimligi va sog'liqni



saqlash boshqarmasining faxriy yorliqlari va rahmatnomalari bilan taqdirlandi. Asosiysi, xalq mehri, hamkasblari va shogirdlari hurmatiga erishdi.

Ajoyib inson, tajribali shifokor Alisher Norbo'tayevning porloq xotirasi hamkasblari, shogirdlari va uni tanigan barcha insonlar qalbida mangu yashaydi.

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI HAMDA VILOYAT STOMATOLOGIYA POLIKLINIKASI JAMOALARI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Past Darg'om tuman davlat xizmatlari markazidan 2018-yil 12-iyunda 615711 reestr raqami bilan ro'yxatga olingan "PASTDARG'OM BALIQCHI XAVZASI" fermer xo'jaligi (qisqartirilgan nomi: "PASTDARG'OM BALIQCHI XAVZASI" FX) ixtiyoriy ravishda tugatilmoqda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

Fermer xo'jaligining pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Past Darg'om tumani, O'zbekiston Mustaqilligi massivi.

Fermer xo'jaligining soliq to'laydigan identifikatsion raqami (STIR): 305600974.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Ochilov Gayratjon Maxmudovichga (2020-yil 16-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Panjob ko'chasi, 4-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Abusalomov Maxammatga (2022-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Nabiyev Abubakrga (2015-yil 25-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Shaxnazarov Boliga (2014-yil 8-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Raximova Mukadadga (2020-yil 22-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 157-uy. Mo'ljal: Samarqand viloyati IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari bo'limi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Murtazayev Murtaza Musinovichga (2020-yil 15-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Abdiev Nabijon Eshboltayevichga (2022-yil 3-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovichga (2022-yil 25-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rta shaharchasi mahallasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Primov Abdullabekovichga (2020-yil 23-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Hayitov G'aybulla Akburtayevichga (2004-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher

Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Yakubov Utirkiga (2021-yil 6-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xolmurodov Anvar Xolmurod o'g'li notarial idorasida marhum Djurayev Iloxom Sadullayevichga (2022-yil 5-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xolmurodov Anvar Xolmurod o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahtamov Erkinjon Tollibjonovich notarial idorasida marhum Amritdinova Mixriya Abdualimovnaga (2018-yil 24-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahtamov Erkinjon Tollibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Andijoni mahallasi.

BEKOR QILINADI
Fuqaro Asadov Suxrob Samatilloevichga qarashli Samarqand shahri "Mingtut" MFY, Mingtut ko'chasi, 56-umumiy hovlida joylashgan 2 ta yashash uylarining 2022-yil 16-martda Ksh 086695 SA va Ksh 086696 SA blankalarda tuzilgan oldi-sotdi shartnomalari (1-yashash uyi: umumiy hovlining 3 foizi, umumiy foydalanish maydoni 87,85 m.kv., qurilish osti maydoni 119,7 m.kv., yashash maydoni 29,76 m.kv. 2-yashash uyi: umumiy hovlining 2 foizi, umumiy foydalanish maydoni 76,43 m.kv., qurilish osti maydoni 101,09 m.kv., yashash maydoni 62,13 m.kv.) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Bulung'ur tumanidagi Yo'ldosheva O'g'liy Miralievna yakka tartibdagi tadbirkorining (STIR: 532263648) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

O'zbekiston tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari kasaba uyushmasining Samarqand viloyati birlashgan qo'mitasi jamoasi qo'mita raisi Boburjon Aliyevga opasi **Zebiniso ALIYEVANING** vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARI RAHBARLARI VA HISOBCHILARI DIQQATIGA!

1-KB shakli yillik mikrofirma va kichik korxonaning 2022-yil uchun hisobotini (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022-yil 16-noyabrda 23-mb-son qarori, 97-ilovasi) 2023-yil 27-fevraldan kechiktirmay, xato va kamchiliklarsiz (my.stat.uz interaktiv xizmatlar portali) **eStat 4.0** tizimi orqali elektron ko'rinshda taqdim etishlarini so'raymiz.

Hurmatli tadbirkor! Hisobotni o'z vaqtida jo'natishni unutmang! Sizga yaratilgan imkoniyatdan foydalaning, vaqtingizni qadrlang! Elektron hisobot - qulay, tekzor va samarali. Murojaat uchun telefonlar: +99866-235-45-90, 235-42-95, 231-12-58. VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI.

“Zarafshon” gazetasining 110 yilligi oldidan

HOJI MUIN kim edi?

ONA TILIMIZNING FIDOVI JONKUYARI

XX asrning birinchi chora-gida yetuk asarlar yaratgan, munavvar fikrlarni ilgari surgan, millatga sadoqatini yo'qotmagan bir qancha ma'rifatparvar jaddilarimizning faoliyati va merosini o'rganish, ilmiy-tarixiy masalalarni alohida qayta ko'rib chiqish va baholash borasida davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan samarali ishlar amalga oshirilmoqda.



tirgani bilan bir qancha muammolari keltirib chiqarganiga ham diqqat qaratadi. Muammolardan biri sifatida esa, Hoji Muin mirzo va tarjimonlarning turkiy tili bilmasliklarini ko'rsatadi: "Hozirgi mirzolarimiz bo'lsa-lar, o'zlari turk o'g'li turk bo'lib turkiy tilning qoidalarini va yoki imloni bilmaydilar, bularning yozg'on va yoza-turg'on narsalari umum va ko'cha tilidan ozgina tafovutlidir".

Ayniqsa, Kamiy, Ajziy, Ibrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sidqiy-Xondayliqiy, Abdulhamid Majidiy, So'fizoda, Tavallo, Abdurauy Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Abdurahmon Sa'diy, Sotti Husayn kabi ko'plab jaddi bobolarimizning hayoti va ijodiga qayta-qayta murojaat qilinib, o'rganila boshlandi.

Ma'lumki, "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" mavzusida olimlar B.Qosimov, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizayev, S.Ahmedov tomonidan darslik, ilmiy risola, adabiy-tanqidiy maqolalar chop etilgan. Albatta, bular davr adabiyotini butunicha olib tekshirish, shu yo'l bilan uning tarixiy taraqqiyot jarayonida tutgan o'rnini belgilashga xizmat qiladigan izlanishlardir.

Ammo ochig'ini tan olib aytilish joizki, o'sha davr adabiy hayotini va adabiy-tanqidiy fikrini o'rganish sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar hali juda ko'p. Shu jihatdan, jaddi ma'rifatparvarlaridan biri Hoji Muinning ijodiy merosi, o'zbek adabiyoti, adabiyotshunosligi va tilshunosligiga qo'shgan hissasi haqida qator tadqiqotlar yaratish vaqti keldi. Ayniqsa, bugungi kunda — Uchinchi Renessans poydevori bo'sag'asida ularning hayoti va ijodini o'rganish, kelajak avlodga yetkazish, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, har bir o'zbek adabiyotshunosining vazifasi, oldidagi ham qarzi, ham farzi sanaladi.

TIL MASALASI HAYOT-MAMOT MASALASIDIR

XX asrning boshlarida ona Vatan ozodligi, taraqqiyoti va millat ma'rifati uchun kurashgan ma'rifatparvar ziyolilardan biri Hoji Muindir. U hayoti va faoliyatini xalqining ma'rifati bo'lishi uchun kurashga bag'ishlagan. She'rlar, dramatik asarlar yaratgan, hajviyalar, publitsistik maqolalar, taqrizlar yozgan va tarjimonlik bilan shug'ullangan. U o'zbek tilining targ'ibotchilaridan biri sifatida bir qator maqolalar muallifi hamdir. Binobarin, o'sha davrning barcha ma'rifatparvarlari o'zbek tili va uning ravnaqi masalasiga katta e'tibor qaratgan.

Jadidlar otasi Ismoil Gaspiralining "Til birligi masalasi bizning hayotimizda hayot-mamot masalasidir va biz bu masalada bir qadam ham orqaga chekinmaymiz. Biz uchun orqaga chekinmoqqa yo'l yo'q. Yashasin millat!..", degan ogohlikka chaqiruvchi so'zlari barcha jaddilarni bee'tibor qoldirmagan. Hoji Muinning "Til masalasi" deb nomlangan maqolasi "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 1918-yil 16-iyul sonida chop etilgan va u quyidagi so'zlar bilan boshlanadi: "Hozirda bizlar uchun eng muhim masalalardan biri, shubhasiz, til masalasidir. Biz Turkiston turklari ona tilimiz bo'lg'on turkiy til bilan birga yasharg'a va turkiy tilimizni o'z hayotimiz va o'z huquqimiz bilan barobar muhofaza etarga tevishmiz".

Ma'rifatparvar olim "eski hukumat zamonida" rasmiy idoralar u yoqda tursin, o'z maktablarimizda ona tilimizda o'qish imkoni bo'lmaganini afsus bilan qayd etadi. Hoji Muin turkiy tilimiz va adabiyotimizning takomili uchun kurashish, turkiy tilning Turkistonda rasmiy hukumat tili darajasiga chiqishini lozim deb bilgan.

KELAJAKNI KO'RA OLGAN OLIM

Ba'zi odamlarning musulmon tilining huquqini rus tili bilan barobarlashtirishga qaratilgan chiqishlarini qoralaydi, barchani, ayniqsa, "ish boshinda turg'on ulug'larimizg'a, yoshlarimizg'a va matbuotimizg'a" zudlik bilan bu masalani hal qilish zarurligini uqtiradi. Musulmon idoralaridagi rasmiy qog'ozlarning rus tilida yuborilayotganini tilimizga jinoyat deb hisoblaydi.

Hoji Muinning bu maqolasi bugungi kunda o'zbek tilining nufuzini oshirishga qaratilayotgan sa'y-harakatlarga mos kelishining o'zi ma'rifatparvar olimning kelajakni ko'ra olganidan darak beradi. Bir oy o'tmasdan "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 13-avgust sonida uning "Til masalasi" deb nomlangan ikkinchi maqolasi ham bosiladi. Maqola Hoji Muinning Turkiston jumhuriyatida turkiy tili rasmiy davlat tili deb e'lon qilishga qaror berilganini e'tirof etish bilan boshlanadi.

"Ulug' Turkiston" rafiqimizning yozg'oniga ko'ra... "Turkiston musulmonlari uchun davlat lisoni turkiy tili bo'lur", deb qat'iy qaror chiqarilg'on...". Bu xabar musulmonlarni shodlan-

misollar bilan ko'rsatib beradi.

Olim mirzo va tarjimonlar muntazam maktablarda o'qimagan uchun ularni ham ayblolmasligini, bunday maktablarning o'zi Turkistonda bo'lmaganini aytar ekan, sohadagi kamchiliklarni birma-bir sanab, uning oldini olish yo'llarini ham ko'rsatib beradi.

TURKISTON O'LKASIDA TIL KURSILARI OCHILSUN

"Turkiston o'lkasidagi har bir shaharda hukumat hisobindin til kurslari ochilsun". Bu kurslarning ikki shu'badan iborat bo'lib, birida mirzolar, mirzolikka havaskorlar, ikkinchisida tarjimonlar, tarjimonlikka havaskorlar o'qitilishi zarurligini ta'kidlaydi.

Shu bilan birga, "turkcha va ruscha tillari va tarjima etmak usullari"ni o'rgatishga chaqiradiki, bu ham Hoji Muinning kelajakni ko'ra biladigan zukko olim ekanidan dalolat beradi.

Oradan uch yil o'tib tuzilgan "So'z, qaror va ish" maqolasi bir oz tanqidiy ruhda ekani ko'rinadi. Maorif, iqtisod, ziroat ishlaridagi kamchiliklarni ro'y-rost tanqid qilgan ekan, olim til masalasiga ham yana to'xtaladi:

"Turkistonda aksar aholi musulmon bo'ldig'i e'tiborg'a olinib, munda uch yil burun turkcha til rasmiy davlat tili deb e'lon etilsa-da, buni amalga kirgizmak uchun hanuz jiddiy tadbir ko'rolmadik. Balki bu "eski hammom — eski tos" mazmunicha ko'p mahkama va idoralarda hanuz rus tili hukm farmoyishdadir".

Hoji Muin tarjimonlar, mirzolarni tayyorlash ishlarini qolib ketgani, qaror va buyruqlardan ham yaxshiroq natija chiqmaganidan afsuslanadi.

O'ZBEK TILINI O'ZBEKLAR ANGLARLIQ BIR HOLG'A QO'YISHIMIZ KERAKDIR

Olim keyingi faoliyatida ham ona tilimiz ravnaqi masalalariga doimiy e'tibor qaratgan. Uning "Vaqtisiz mubohasa" maqolasi o'sha paytda ancha vaqt davom etgan til birlashtirish haqidagi bahs masalasiga bag'ishlangan.

"Zarafshon" gazetasida bu bahsni boshlagan ba'zi "o'rtoq"larning faoliyatiga baho berar ekan, hozirda undan ham muhim bo'lgan "maorif va xalqni oqartirish" masalasiga diqqat qaratish lozim, deb hisoblaydi.

"Modomiki, bir xalq ichida maorif tarqatish xalqning o'z ona tili bilan bo'ladur, biz ham xalqimizni oqartirish uchun o'zbek tiliga ahamiyat bersak lozimdur. Ya'ni, o'zbekcha tili o'zbeklar anglarlik bir holg'a qo'yishimiz kerakdir. Bu ish esa tabiiy til birlashtirishga xilof bir hol bo'lib qoladir".

Bundan ko'rinish turibdiki, o'z ona tili uchun jon kuydirgan olim, umumturklar uchun musharak adabiy bir til masalasiga qarshi, shu bilan birga, uni "vaqtisiz, foydasiz" ish deb hisoblaydi. Fikrini aniq misollar bilan isbotlashga harakat qiladi. Masalan, til birlashtirishga kirishgan Gaspirali, Turkistonda esa Behbudiyning faoliyati haqida fikr yuritib, ularning harakati muvaffaqiyatsiz chiqqanini ko'rsatib beradi. Bu masalaga o'zining qarshi emasligini ham bildiradi: "Menga qolsa, til birlashtirishdan ko'ra, hozirda o'z tilimiz bo'lg'on o'zbekchani xalqimizga qulayroq tushuntirish orulur darajada soddalash-tirish lozimdir. O'zbekcha sarf-nahv va nazariyoti adabiyalar tuzish, tugal lug'at kitoblari yozib, bostirish zarurdir". Zaki Validiyning til haqidagi "Turk-totor tillarining yozilishi" deb nomlangan maqolasidan misollar keltirib, o'zining mulohazalari to'g'riligini asoslaydi.

O'z davrining qalbi uyg'oq muallimi, publitsist, tarjimon, dramaturg Hoji Muin maorif, tilning yuksakligi uchun kurashgan jaddilardan biri sifatida adabiyotimiz tarixida qoladi.

Shoira AHMEDOVA, Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

"Yangi O'zbekiston" gazetasining 17-yanvar, 10-sonidan olini.

Mir Alisher Navoiy tug'ilgan kunida hadis ilmi maktabida o'qiyotgan yoshlar, tanikli olimlar, jamoatchilik vakillari bilan bir suhbatda ishtirok etdim. Albatta, tadbirni tashkil qiluvchi aka-uka faol ziyolilar garchi ota-onasi xotirasiga xatm-qur'on qilgan bo'lishsa-da, davrning yo'rig'i hazrat Navoiy ma'rifatiga bag'ishlandi.



Tafsilot

MA'RIFAT IYMONGA YETAKLAR

- Alisher Navoiy asarlarining ko'p nusxalari xorijdagi kutubxona va muzeylardan mamlakatimizga keltirilmog'da, - dedi hadis maktabi rahbari Olim Yusupov. - Qo'lyozmalarning noyobligi shundaki, unda xattot mahoratidan tashqari, ajdodlarimizning hali bizgacha yetib kelmagan meros namunalari mavjud. Shulardan biri 1500-yilda Sul-ton Husayn topshirig'i bilan yaratilgan kulliyotdir. Muqovasi teridan qilingan, yozuvlariga esa oltin suvi yugurtirilgan. Alisher Navoiyning bu to'plami hozirgacha Istanbul kutubxonasida saqlanadi. Mazkur qo'lyozma nusxasi bizga ham keltirildi. Bugungi suhbatimizda ana shu to'plam mohiyatini tushuntirib berish uchun yosh, iqtidorli adabiyotshunos, Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi Akram Malik kelgan.

Darvoqe, bu yigit o'tgan yil bosh kutubxonamizda shu mavzuda chiroyli ma'ruza qilgan edi. Mehmon suhbatni buyuk mutafakkirning bugungi kunda hayotimizni yanada yaxshi qilish uchun zarur bo'lgan xulosalarini sharhlashdan boshladi. Bu avvalo, o'zni anglash, birovni tinglay bilish, o'zini dunyoning bir zarrasi deb bilish, e'tiqoddan voz kechmaslik, eng muhimi, boshqalarga ziyon yetkazmaslik kabi tushunchalar edi.

- Ammo bunday fazilatlar faqat bitta holatda inson vujudida ro'yobga chiqadi, ya'ni u ma'rifatli bo'lsagina, - dedi Akram Malik. - Navoiy deyarli barcha asarlarida ana shu g'oyani ilgari suradi.

Notiqning fikricha, bu to'plamda "Munojot" o'ziga xos tarzda yozilgan. "Munojot" - bu Allohga hamdu sano aytishgana emas, balki inson o'z gunohlariga iqror bo'lishi, kamchiliklarini tan olishi, tavba-tazarru qilishi va kelgusida bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun va'da berishining poetik ifodasi. Biz esa gohida Xudoni unutmaganligimiz tu-fayli qonunlarni ham mensimay qo'ydik. Xatolarimizni tan olish o'rniga o'zimizni oqlashga berilib ketdik.

Yana bir ibratli xulosa. Biz ko'p hollarda biror xatoga yo'l qo'ysak, yuzaki bo'lsa-da, kechirim va uzr so'ray-miz, "Meni shayton yo'ldan urdi" deymiz. Vaholanki, Navoiy asarlaridagi xulosalarini o'qib, uqib, anglab yetsak, unga ko'ra, shayton hamisha bizning ichimizda va bu shayton xuddi o'zi kabi vujudimizda mavjud nafsingizni qo'lab-quvvatlaydi. Demak, nafs hamisha biz bilan birga, Xudo ana shu nafsni tiyish uchun bizga aql, farosat bergan. Insonning qadr-qimmatini ham umri davomida shayton

va nafsqa qarshi kurashiga qarab belgilanadi. Akram Malik Alisher Navoiy merosining ahamiyati haqida gapirar ekan, oilaviy tarbiya, ota-ona ibratini mutafakkir asarlari g'oyasining bosh o'zagi ekanligini alohida ta'kid-ladi. "Farhod va Shirin" dostonida Farhodning ota taklifiga moyillik bildirmasdan, ya'ni imtiyozdan foydalanmasdan, kitob o'qishga, fikrlashga, oddiy bo'lishga intilishi bu ota so'zining inkori emas, balki otaning ibratli tarbiyasi sa-marasidir. Alisher Navoiy Farhod obrazi orqali inson umri davomida turfa holatlarga duch kelishi, faqat ongu shuuri yetgan narsalargagina amal qilishi va har qanday holat-da ham faqat sabr va tafakkur bilan yashashi zarurligini ta'kidlaydi. Farhod o'z yo'lida duch kelgan qiyinchiliklar har kimning boshida bo'lishi mumkin, lekin bu doston-da bu vaziyatlar turli obrazlar orqali ko'rsatib berilgan.

"Layli va Majnun"dagi Laylining latofatiyu Majnunning dardi ham faylasufona sharhlangan. Ya'ni, ishq - bu lahzalik hayaljon. Qat'iyat, vafu, sadoqat, yurakni anglash kabi fazilatlarini paydo qilmagan bu lahzalik his muhab-bat bo'la olmaydi. Muhabbat sinovlari bu - hayotning sinovlaridir. Zero, buyuk shoir muhabbat asnosida yolg'iz Xudoga suyanishgana insonning vujudini quvvatli qiladi, degan xulosaga keladi. Xudoga suyanish bu - faqat Xu-dodangina o'ziga kuch-quvvat so'rash deganidir. Allohdan boshqaga suyanish, bog'lanib qolish hamisha hayotda inson oldiga juda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Negaki, xato qilmaydigan odam yo'q.

Alisher Navoiy asarlari bugungi zamonda ham bizni ma'rifatga chorlab turibdi. Ma'rifat esa fikrimizni teran-lashtiradi, dillarimizni yaqinlashtiradi, ezgu fazilatlarini birga baham ko'rishga imkon yaratadi. O'z qadri, zamonasi qadri, atrofidagilarning qadri, anqagan inson Xudoning suyuqlik bandasi, jamiyatning faol fuqarosi hisoblanadi.

Men suhbatdan ana shu taassurotlar bilan qaytayot-ganimda hamrohim, faxriy muallim Abdumalik Majidov so'rab qoldi:

- Men ham ushbu muloqotdan ko'p narsa oldim. Nega biz ma'rifiy suhbatlar o'tkazmaymiz, hammasini seminar, konferensiya deb rasmiylashtiramiz. Vaholanki, oddiy aholi o'rntasida "Navoiyxonlik", "Boburxonlik", "Mashrabxonlik" kabi mashvartlar bo'lgan-ku axir...

Endi bu savolga mutasaddilar javob berar.

Farmon TOSHEV.



UNING HAM UVOLI BOR

Tuman markaziga borayotib, yo'l yoqasida to'xtab turgan yuk mashinasiga yuklangan o'tinga ko'zim tushib qoldi. Qahraton qish emasmi, hamma o'tin izlab yurgan vaqt. Yo'lovchilar to'xtab, haydovchidan o'tinning narxini so'rab, ketishyapti. Men ham qiziqib so'radim.

- To'rt million so'mga uyingizga olib borib beraman, - deya javob berdi haydovchi. -Sizga qish tuga-gunicha yetadi. Hammasi g'o'lacha qilib kesilgan.

- To'rt million so'm? Nima deyap-siz, o'g'lim, boshqalar bir mashina o'tinni 1,5 million so'mga keltirib beryapti-ku, axir. Sal insof qilsan-giz-chi. Buncha pul topshing o'zi bo'ladimi? Bu pulga ancha ko'mir olsa bo'ladi-ku.

- Bu o'tinlar tut daraxtidan kesib olingan, yaxshi yonadi.

E'tibor qilmagan ekanman, mashi-nadagi o'tinlarning hammasi marvarid tut daraxtidan kesib olingan ekan. To'g'risi, ko'zimga yosh keldi.

O'n yillarcha beraman uyingizga-da o'sib turgan 250 yillik marvarid tut daraxtini kesgan odamlarning taqdiri yodimga tushdi. Urush yillari oshing'imiz aholisini ochlikdan inson saqlab qolgan o'sha tut juda qadrdon edi bizga. Ocharchilik yillari uning mevasini yeb, tirik qolgan insonlarning ayrimlari haligacha hayot. Ular bu daraxtning qadri-ni yaxshi bilishardi. Ushbu muqaddas daraxt haqidagi voqealarni ko'p eshitganmiz. Yillar o'tsa ham hech kim unga bolta urishga jur'at qil-magandi. Hatto pechkaga yoqishga o'tin qolmagan vaqtlarda ham unga teginishmagan. Biroq qishlog'imizda yashab o'tgan ikki aka-uka shu mar-

vard tutlarining tarvaqaylab o'sgan shoxlarini kesib, yoqqan edi. Oradan ko'p o'tmay, ularni shu tutning uvoli tutdi.

Bundan 30 yil ilgari qaysi qish-loqqqa bormang, yo'l yoqasidagi tut daraxtlariga ko'zingiz tushardi. Tut pishig'ida mevalarini terib olib, qorin tuyg'izar edik. Ayniqsa, paxtazor-lar orasiga ekilgan tutlarni ko'rib, ko'z quvnardi. Yoshligimizda dalada ishlab, charchasak, ularning soyasida o'tirib, dam olardik. Endi bo'lsa, bun-day daraxtlardan asar ham qolmabdi. Hatto katta yo'l yoqalaridagi tutlarni ham kesib ketishganini ko'rib, ularga achindim. Bu ketishda birorta tut daraxti qolmaydi-ku.

Nafaqat tut, balki mevali daraxtlar-ni ham tubidan kesib, o'tin qilib yoqib bo'lmaydi. Ularning ham uvoli tutadi, deydi keksalarimiz.

Fayzulla ISMOILOV, Jomboy tumani.

Matbuot uyi Zarafshon Samarqandskiy Vestnik

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi Bosh muharrir: Farmon TOSHEV Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 649 nusxada chop etildi. Buyurtma 79. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2 Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi. QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56 BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61 MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi. «Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxon manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy. Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G'.HASANOV. Navbatchi: O'.XUDOYBERDIYEV. Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV. Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X 9 1772010667009 Sotuvda narxi kelishilgan holda